

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muloqotning psixologik tamoyillari xususida	90
M.M.Kaxarova	
Til va nutq tushunchasi	97
M.M.Kaxarova	
Konsept va u bilan bog'liq terminlar xususida.....	103
E.V.Yugay	
Clarity and accessibility as drivers of scientific impact in academic writing.....	107
D.I.Sattarova	
Siyosiy matnlarda intertekstual unsurlar va ularning kommunikativ ahamiyati	112
G.U.Yuldasheva	
Ingliz va o'zbek tilshunosligida "Baxt" va "Baxtsizlik" konseptlarining o'rganilishi.....	117
G.U.Maxmudjonova	
O'zbek tilida orfoepik me'yorlarni avtomatlashtirishning muammolari va yechimlari	123
Sh.R.Askerova	
Metaphor and its types in modern french	127
H.U.Davlatova	
Tilshunoslikda nutq ontogenezining psixolingvistik tadqiqi va uning ilmiy-nazariy asoslari	131
Z.S.Kenjaye	
Boysun tumani oronimik tizimida zoonim komponentli oronimlar	138
A.R.Kosimov	
Критическое отношение к собственной педагогической практике.....	143
M.Ш.Бахриддинова	
Антропоцентрический подход в переводе и влияние когнитивных и культурных факторов на восприятие	146
Ч.Х.Чамолов	
Иртиботи забонҳои тоҷикӣ ва ўзбекӣ	151
X.P.Murtozoev, M.A.Ubaydullozoda	
Ҳодисаи савтии ҷойивазкунии овозҳо дар ашъори намояндагони сабки Хуросонии адабиёти тоҷику форс.....	158
X.J.Sayfullayev, F.M.Ulasheva	
Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari	164
S.A.Toshmatova	
Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida milliylik ifodasi: realiyalar va ularning inglizcha tarjimadagi talqini	171
S.M.Muminov, Sh.D.Muxtorova	
Data jurnalistikasi va uning ma'lumotlar tahlilida tutgan o'rni (internet nashrlari misolida)	176
U.To'rayeva	
O'zbek tili grammatikasining zamonaviy o'qitilish usullari: muammo va yechimlar.....	182
H.U.Davlatova	
Nutq ontogenezining lingvistik tadqiqi	187
I.V.Xoldarova	
Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari	195
N.ShAbdullayeva	
Teaching the use of thesauruses to english as a foreign language learners: pedagogical approaches and lexical development	198
M.O.Obilov	
Kognitiv sxemalar va freymalar: akademik matn yaratishda shaxsiy tajribaning roli	207
N.Sh.Abdullayeva	
Innovative approaches to teaching english as a foreign language: contemporary methodologies and digital integration	212
Z.A.Akbarova	
Inson dunyo qarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	219
I.B.Xabibullayev	
Said Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasidagi oilaviy munosabatlarda psixofiziologik holat tasviri	222
M.X.Hakimov	
Implitsitlik kategoriyasi xususida	227



UO'K: 81'37.01

IMPLITSITLIK KATEGORIYASI XUSUSIDA

ABOUT THE CATEGORY OF IMPLICITNESS

К КАТЕГОРИИ НЕЯВНОСТИ

Hakimov Muhammad Xo'jaxonovich 
Farg'ona davlat universiteti professori, f.f.d.

Annotatsiya

Maqolada implitsitlik kategoriyasi xususida fikr yuritiladi. Implisit - yashirin ma'no anglatuvchi terminologik tizim tahlilga tortiladi. Shuningdek, implitsitlik kategoriyasining paradigmatic tizimi nazariy adabiyotlar sharhi orqali tushuntiriladi.

Abstract

The article discusses the category of implicitness. The implicit - a terminological system with a hidden meaning - is subjected to analysis. Also, the paradigmatic system of the category of implicitness is explained through a review of theoretical literature.

Аннотация

В статье обсуждается категория имплицитности. Имплицит - терминологическая система со скрытым значением - подвергается анализу. Также, парадигматическая система категории имплицитности объясняется посредством обзора теоретической литературы.

Kalit so'zlar: yashirin ma'no, oshkora ma'no, implitsit, implitsitlik kategoriyasi, kriptotip, yashirin lisoniy tasavvurlar.

Key words: implicit meaning, explicit meaning, implicit, category of implicitness, cryptotype, hidden linguistic representations.

Ключевые слова: имплицитное значение, эксплицитное значение, имплицит, категория имплицитности, криптотип, скрытые лингвистические представления.

KIRISH

Implitsitlik bu lingvokognitiv fenomendir. U til, nutq va matnda bilimlarning maxsus shakli sifatida mavjuddir. Implitsitlik kategoriyasi bo'yicha dastlabki tadqiqotlar o.Dyukro, S.Todorova kabi olimlarga tegishli bo'lib, ular bu masalalarga o'z munosabatlarini bildirganlar. Shu sohadagi tadqiqotlarni V.a.Zveginsev, K.a.Dolinin, E.V.Yermakova[1; 2; 3; 4; 5] kabi olimlar davom ettirganlar. Implitsitlik muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarni bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Ularning aksariyatida implitsitlik kategoriyasi aynan tagma'no masalalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Implitsitlik masalalariga bag'ishlangan boshqa tadqiqotlarda tagma'no masalasi inkor qilinadi. Uchinchi tipdagi tadqiqotlarda bu kategoriya umumiy planda o'rganiladi, tilning implitsit sistemasiga mansub bo'lgan qator hodisalar izlanishlar obyekti sifatida e'tirof etiladi. Biroq bu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlarning mohiyati fikrni implitsit ifodalashning umumiy mexanizmlari haqidagi qarashlar bilan integrallashadi va implitsit kategoriyaga oid nazariyaning shakllanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Lisoniy birliklarning yashirin ma'nosiga oid qarashlar tilshunoslikda yangi yo'nalish deb e'tirof etilsa-da, aslida tilning implitsit strukturasiga taalluqli qarashlar yirik tilshunos olimlar tomonidan ancha ilgari aytilgan. Yashirin fikrlar ifodasiga oid g'oyalar taniqli tilshunos olimlar B.L.Uorf va I.a.Boduen de Kurtene qarashlariga borib taqaladi. "B.L.Uorf 1936-yilda "kriptotip", 1938-yilda "yashirin kategoriya" kabi terminlarni taklif qiladi. I.a.Boduen de Kurtene esa "yashirin lisoniy tasavvurlar" (потаенных языковых представлений)ning katta guruhlariga haqida gapiradi" [6, 47]. Bunday g'oya va qarashlar mentalingvistika tizimidagi tushunchalar bo'lib, ularning mohiyati

til va tafakkurning o'zaro munosabatidan iborat bo'lgan Vilgelm fon Gumboldtning antinomiylariga bog'lanadi. antinomiya nazariyasiga ko'ra, "...tilsiz tafakkurning bo'lishi mumkin emas. Til, o'z navbatida, tafakkurni taqozo etadi. Har ikkisi bir-birining taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Inson faoliyatida til va tafakkur bir-biridan ajralgan holda yashamaydi. Bu esa ularning ajralmas bir butunligi va ichki ziddiyatini, katta butunlikning ziddiyatli ikki tomonini ko'rsatadi" [7, 31]. Til va tafakkurning bog'liqligi fikrning lisoniy moddiylishuvi orqali, lisoniy ifodaning asosi esa tafakkurdagi g'oya va fikrlarning mazmuni orqali yuzaga chiqadi. "Tilning tafakkur faoliyatidagi rolini bilish uchun ong va tilning munosabatiga oddiy bir hol (hodisa) sifatida qaramaslik lozim. Bu munosabat ikki mustaqil hodisaning o'zaro "muloqoti"dir. Xuddi shu "muloqot" mental faoliyatning lisoniylashuviga olib keladi, zero, lisoniy va mantiqiy faoliyat bir-biriga hamroh bo'lib, ular yagona nutqiy tafakkur jarayonini tashkil etadi. Demak, til ongni harakatlantiruvchi vositalardan biridir, u ongda eng oddiy birlamchi (elementar) tafakkur kategoriyalari paydo bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu kategoriyalarsiz "...alohida nutqiy tuzilmalar – gaplarni tushunish va fikr(g'oya)ning hamda shu yo'sinda bilimning faollashuvini ham tasavvur qilib bo'lmaydi" [8, 14]. Tafakkurdagi fikr va g'oyalar implitsitlashgan kategoriya sifatida muntazam ravishda mavjud bo'ladi. Bunday kategoriyalarning asosi va mohiyati olamni bilish va anglash jarayonining mahsulidir. "Inson sezgi organlari orqali obyektiv olam elementlari belgilarini umumlashtirgan holda aks ettiradi va ongda aks ettirilgan bu obyektiv olamning umumlashgan obrazi til kodlari orqali tinglovchiga uzatiladi. Tinglovchi akustik signal orqali obyektiv reallik haqida ma'lumotga ega bo'ladi" [7, 324]. akustik signallar orqali qabul qilingan tushuncha va ma'lumotlar lisoniy vositalar yordamida oshkora ifoda shakliga ega bo'lsa-da, ularning bir qismi mantiqiy kategoriyalarga oid bo'lib, verbal vositalarning kognitiv modellari bilan kodlanadi. Mantiqiy kategoriyalarga oid semantik tushuncha va birliklar inson tafakkurida muntazam ravishda saqlanadi. Kommunikantlar ana shu zahiradagi muayyan bilimlar asosida yashirin axborotlarni anglab oladilar. Demak, fikrni oshkora va yashirin ifodalanishi ham grammatik kategoriyalar, ham mantiqiy kategoriyalar yordamida yuz beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

aslida an'anaviy tilshunoslikda tilning grammatik kategoriyalari haqidagi nazariyalar mavjud bo'lsa-da, ularning mohiyati ba'zan yashirin grammatik kategoriya termini ifodalagan tushunchalar bilan anglashiladi. agar grammatik kategoriya yoki yashirin grammatik kategoriyalar tizimiga oid tushunchalar shakl yoki oshkora mazmun ifodasi uchun xizmat qilsa, biz ularni eksplikatsiyalangan lisoniy sistema deb yuritamiz. Bunda fikrning ham yashirin, ham oshkora qismlari lisoniy vositalar bilan eksplikatsiyalanadi. So'z yashirin kategoriya, implitsit kategoriya, implitsit fikr to'g'risida borganida esa, eksplitsit fikrlarning lisoniy sistemada implikatsiyalanishi deb tushunish kerak bo'ladi. Shu ma'noda yuqoridagi yashirin kategoriyaga oid terminologik birliklarni ilmiy asos bilan sharhlashga, implikatsiya tili bilan aytganda, interpretatsiya qilishga harakat qilamiz.

Implitsit kategoriyaga oid terminlar turli sohaga mansub lug'atlarda quyidagi tartibda izohlanadi: "kripto..." grekcha *kryptos* so'zidan olingan bo'lib, sir, *hali ma'lum bo'lmagan, yashirin*[9, 268] kabi ma'nolarni anglatadi. Boshqa lug'atlarda esa "*kriptogramma*" – maxfiy belgi yoki ishoralar bilan yozilgan xat yoki yozuv, degan ma'noda ishlatilishi ko'rsatiladi. Demak, B.L.Uorfning yashirin grammatika konsepsiyasiga taalluqli bo'lgan "*kriptotip*" atamasini yuqoridagi etimologik tahlillarga asoslangan holda quyidagicha izohlash mumkin. "*Kriptotip*" terminining birinchi qismi grekcha *kryptos* so'zidan olingan bo'lib, maxfiy degan ma'noni anglatadi, mazkur terminning ikkinchi qismi hisoblangan "*tip*" atamasi esa B.L.Uorf nazariyasiga ko'ra, fikrlarning yashirin tipi yoki inson tafakkuriga xos asosiy g'oya mohiyatini beruvchi fikr tushunchasini ifodalashga xizmat qiladi.

I.a.Boduen de Kurtenening implitsit kategoriyalar haqidagi qarashlari "yashirin lisoniy tasavvurlar"ning katta guruhi deb nomlangan bo'lsa-da, G.G.Matveyevaning ta'kidlashicha, "...aslida so'z tashqi formal belgilar haqida boradi. Masalan, nemis tilida grammatik jins kategoriyasi artikllar, zamon kategoriyasi esa ish-harakatning bajarilishiga nisbatan, tuslanish va turlanish paradigmaları tashqi formal ko'rsatkichlarga nisbatan belgilanadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, ularda yashirin ma'no belgilari ko'rinmaydi. Umumiy grammatik kategoriyalar doim ham bu belgilarni ifodalashga xizmat qilmaydi" [6, 47]. ana shu qarashlar asosida I.a.Boduen de Kurtenening yashirin lisoniy tasavvurlar haqidagi fikrlarini quyidagi tartibda tushuntirish mumkin bo'ladi. Yashirin lisoniy tasavvurlar nutq yoki matn mazmuni bilan namoyon bo'luvchi implikativ fikrlar bo'lib, ularni Boduen de Kurtene tili bilan "yashirin lisoniy tasavvurlar"ga asoslangan

TILSHUNOSLIK

implitsit fikrlar deyish mumkin. Matn mazmunining bir qismi bo'lgan bunday implitsit fikrlar nutqiy muloqot jarayonining mahsuli sifatida idrok qilinadi. Idrok qilingan fikrlarning aksariyati kommunikatsiya ishtirokchilarining umumiy bilim fondi tarkibida joylashadi. Shuning uchun ham implitsitlashayotgan fikrlarning mohiyati kognitiv mexanizm asosida umumiy bilim fondiga nisbatan belgilanadi. Bunday fikrlarning o'zaro differentsiatsiyasi, farqlanishi kontekstual struktura, nutq vaziyati hamda boshqa tashqi omillar hisobiga yuz beradi.

Tilshunoslikda antroposentrik nazariyaga asoslangan yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi va shakllanishi ularning aksariyati uchun tadqiqot obyekti bo'lgan matn, nutq, kontekst kabi til materiallari haqida konkret tushuncha va ma'lumotlar olish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Shu ma'noda tilshunoslikning yangi yo'nalishlariga mansub bo'lgan qator fanlarning terminologik apparati tizimida yangi termin va atamalar paydo bo'ldi (termin aynan fanga tegishli, atama esa determinlashish jarayoniga yaqinlashishdir). Bu terminologik birliklarga izoh berish, ular ifodalagan tushunchalar mohiyatini tushuntirish, bu atamalar bilan bog'liq hodisalarni o'zida aks ettiruvchi ta'riflarni keltirish orqali tilshunoslikning yangi sohaları tadqiqot obyekti farqlash, ularning chegaralarini aniqlash ehtiyoji kundan-kunga ortib bormoqda. Ma'lumki, matn va nutq matn tilshunosligi, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvopoetika, lingvoestetika, lingvokulturologiya kabi qator sohalarning tadqiqot obyekti deb e'tirof etilgan. Shunday bo'lsa-da, sohaga oid dunyo va rus tilshunosligidagi ilmiy adabiyotlarda "...so'z, ifoda, matn, kontekst, "zatekst", "podtekst (tagma'no)", gipertekst, semantika, yaxlitlik, lisoniy ong, produsent, retsipient, olam obrazi, matn proektsiyasi" [10, 162] kabi terminlar ham qo'llanadi. Bu terminologik birliklarga izoh berish, ular ifodalagan tushunchalarni anglash va bu terminlar yuqorida sanalgan tilshunoslikning yangi yo'nalishlarida o'zining qaysi funksional jihati bilan ishtirok etishini tushunish uchun ularni fan sohaları nuqtayi nazardan izohlash muhimdir. Masalan, so'z, so'z birikmasi, gapning struktur modellari an'anaviy tilshunoslikning obyekti sanaladi. So'z tilning asosiy struktur-semantik birligi hisoblanib, u predmet, hodisa va buyumlarni nomlash uchun xizmat qiladi. So'z birikmasi ham predmet, hodisa va jarayonlar nominatsiyasini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Tilshunoslikda gap til birligi ekanligi qabul qilingan, biroq tilshunoslikning yangi yo'nalishlari hisoblangan psixolingvistika hamda pragmalingvistikada gap haqida so'z bormaydi. antroposentrik nazariyaga asoslangan tilshunoslikning yangi yo'nalishlarida "gap" termini o'rinda "ifoda" atamasi qo'llanadi. "Ifoda" termini nutq ishtirokchilari va nutq vaziyati bilan bog'liq holda nutqiy muloqot birligi sanaladi. Shuning uchun ham inson omili nazarda tutilgan tilshunoslikning yangi yo'nalishlari uchun tadqiqot obyekti sifatida kommunikatsiya ishtirokchilari o'rtasidagi muloqotni o'zida to'liq aks ettiruvchi matn va nutq hodisalari tanlab olinadi. Nutqning uslubiy-funksional turlari yoki matnning uslubiy-funksional xoslanishi muloqotning o'ziga xos tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida sanab o'tilgan ifoda, matn, kontekst, matn orti (затекст), tagma'no va gipermatn kabi terminologik birliklar mazkur tadqiqot mohiyatini o'zida aks ettiruvchi hodisalar sifatida tahlilga tortiladi.

"Matn murakkab semantik hodisa bo'lib, u tarkibidagi so'z, so'z birikmasi yoki fraza kabi vositalar bilan ifodalanmaydigan qator psixolingvistik xususiyatlarni ham namoyon qiladi. Matnga xos bo'lgan bunday psixolingvistik tavsif muallif – kitobxon idroki bilan bog'liq bo'lib, uning mohiyati matnning mazmuniy strukturasi shakllanishi mumkin bo'lgan assotsiativ fikrlar asosida matnning mazmuniy yaxlitligi, matn komponentlarining bog'lanishi, matnning mazmuniy strukturasi emotivlikning ifodalanishi, matn kreolizativligi hamda matn mazmuniga xos pretsedentlik kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Matnda kommunikatsiya ishtirokchilarining noverbal xulqiga xos izlar saqlanadi va bular matn interpretatsiyasining yuqori darajasini tashkil qiladi" [10, 162].

Implitsitlik kategoriyasi haqidagi dastlabki fikrlar rus tilshunosi K.a.Dolinin[4, 37-47] ga tegishli bo'lib, u bu masalani ifodaning mazmuniy strukturasi bilan bog'laydi. Shu o'rinda o'rta qo'yilgan muammolar yuzasidan ayrim nozik masalalarga aniqlik kiritib olishga to'g'ri keladi. "Mazmuniy kategoriya" birikmali termini ifodalagan tushunchalar mohiyati "matn", "nutq", "kontekst" yoki "ifoda" atamaları bilan bog'liq bo'lib, muallif mazkur maqolada ularning ichidan aynan "ifoda" terminini tanlab oladi. Yuzaki qaralganda, olim maqolada matn, nutq, kontekst kabi terminlardan foydalangan holda, implitsit mazmuniy kategoriyaga oid qarashlarini berishi ham mumkin edi, lekin u til va nutq hodisalariga qat'iy rioya qilgan holda implitsitlik kategoriyasi sistemasiga mansub bo'lgan ilmiy paradigma tamoyillari asosida "ifoda" terminidan foydalanadi.

Mazkur termin nutq hodisasi sifatida kontekstual strukturaga tegishli tushuncha bo'lib, u

kognitiv mexanizmlarga binoan matn yoki nutq yaratish jarayoni hisoblanadi. Nutqiy muloqot jarayonida fikrning implitsit mazmun kasb etishi kontekstual hodisa sifatida e'tirof etiladi. aynan mana shu hodisa ifoda jarayoni bilan bog'liq bo'lganligi uchun implitsitlashayotgan fikr va shu nazariya uchun "ifoda" terminidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu fikrni ilmiy adabiyotlardagi qarashlar ham tasdiqlaydi. Jumladan, yashirin grammatik kategoriyalar yoki fikrning implitsit ifodasiga oid terminologik birliklar qatorida "...so'z, ifoda, matn, kontekst, "zatekst", "podtekst (tagma'no)", gipertekst" [10, 162] kabi terminlar qo'llanib, ular implitsitlik paradigmasini hosil qiladi. Bu terminologik birliklarga izoh berish orqali yuqoridagi qarashning ilmiy jihatdan to'g'riligini yana bir karra tushunish mumkin. antroposentrik nazariyaga asoslangan tilshunoslikning kognitiv lingvistika, psixolingvistika va pragmalolingvistika kabi yangi yo'nalishlari uchun "gap" termini o'rinda "ifoda" atamasini qo'llash to'g'ridir. "Ifoda" termini nutq ishtirokchilari va nutq vaziyati bilan bog'liq holda nutqiy muloqot birligi sanaladi. Shuning uchun ham K.a.Dolinin fikrning yashirin ifodalanishi haqidagi implitsitlik kategoriyasi nazariyasiga nisbatan **ifoda** terminini qo'llashi mutlaqo to'g'ri. U o'zining qarashlarini quyidagi fikrlari bilan asoslaydi: "...shu fakti alohida ta'kidlash kerakki, gapning mazmuni bu hali ifoda orqali tasvirlangan fikr emas, biz gapga taalluqli mazmuniy strukturadan alohida ifodalar orqali juda ko'plab muhim axborotlarni ilg'ab olamiz" [4, 37]. Muallifning to'g'ri ta'kidlashicha, ifoda, birinchidan, bu kontekstual hodisa. Ikkinchidan, u nutq hodisasi sifatida kommunikatsiya jarayonida yuz beradi. Shuning uchun ham gapga tegishli bo'lgan ifoda mazmuni muayyan ohang yoki intonatsiya orqali yuz beradi. Kommunikatsiya ishtirokchilarining muloqot jarayonidagi o'ziga xos intonatsiyasi gapning mazmuniy strukturasi turli xil axborotlarning yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi.

Muallif fikrning implitsit ifodasini badiiy adabiyotning ayrim janr va yo'nalishlari bilan emas, balki insonning nutqiy faoliyati bilan bog'laydi. U ifodaning implitsit mazmuni lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yuz berishini ta'kidlab, hamma ifodalar ham tagma'no maqomiga ega bo'lavermasligini tushuntiradi[4, 37]. U o'z fikrlarini tagma'no hodisasi misolida izohlaydi. Gap yoki matnga tegishli bo'lgan implitsit mazmuniy struktura fikr oshkora ifodalanishining mahsulidir, degan qarashni o'rta tashlaydi. Misol sifatida u *Gabi Luluga turmushga chiqaypti* jumlasini keltiradi. Mazkur gapdagi implitsit strukturani komponent usul bilan tahlil qiladi. 1). Gabi – ayol. 2) Lulu – erkak. 3) Gabi va Lulu voyaga yetgan shaxslar. 4) Gabi va Lulu – fransuzlar. 5) Gabi va Lulular bu kunga qadar nikohda bo'lmaganlar[4, 38]. Bizningcha, verbal vositalar bilan oshkora ifodalanmagan, biroq jumla mazmuniy strukturasi implikativ usul bilan voqelangan bu ma'lumotlar kommunikantlarning umumiy bilim fondini tashkil qiladi va har qanday til vakili bunday implikativ axborotlarni to'liq anglay oladi. Shuning uchun implitsit usul bilan tasvirlangan fikrlar va aynan implikatsiya hodisasini farqlash maqsadga muvofiqdir. aslida yuqoridagi jumlaning asosiy mazmuni Gabining Luluga turmushga chiqayotganligi haqidagi propozitiv struktura bo'lib, u fikrning eksplitsit ifodasi sanaladi. Qolgan ma'lumotlar implikativ mazmunni tashkil qiladi. Muallifning to'g'ri ta'kidlashicha, yuqoridagi implikativ mazmun presuppozitiv strukturaga tegishlidir.

XULOSA

Haqiqatan ham badiiy matn mazmuniy strukturasi tegishli bo'lgan yashirin fikrlar propozitiv struktura orqali namoyon bo'ladi. Implitsitlashgan fikrlar mazmunning qaysi sathiga tegishli bo'lishi hamda qanday usul va metodlar bilan anglanishidan qat'iy nazar, ular nutq yoki matnning umumiy mazmuniga taalluqli bo'ladi. Masalan, presuppozitiv mazmuniy qismning ifoda vositasi verbal birlik bo'lishi mumkin. Biroq implikativ mazmun tarkibiga kiruvchi hodisalarda verbal vositalar ishtirok etmaydigan birliklar ham mavjuddir. Shu nuqtayi nazardan ifodaning implitsit mazmuni o'zaro farqlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ducrot O. Pressupposes et sous-entendus // Epistemologie. Langue. – 1998. P. 107-126.
2. Тодоров Ц. Грамматика повествовательного текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С. 450-463.
3. Звегинцев В.а. Предложение и его отношение к языку и речи. – М.: Изд-во Московского ун-та, 1976. – 309 с.
4. Долинин К.а. Имплицитное содержание высказывания // Вопросы языкознания. – 1983. – № 6. – С. 37-47.
5. Ермакова Е.В. Имплицитность в художественном тексте (на материале русскоязычной и англоязычной прозы психологического и фантастического реализма): автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Саратов, 2010.
6. Матвеева Г.Г. основы прагмалингвистики. – М.: Инфра-М, 2022. – С. 47.

TILSHUNOSLIK

- р7. Нурмонов а. Танланган асарлар. III жилдлик. II жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 31.
8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 14.
9. Словарь иностранных слов. – М.: Рус. яз., 1988. – С. 268.
10. Белянин В.П. Психоллингвистика. – М.: Флинта, 2016. – С. 162.